

MAKTAB VA OILA INTEGRATSIYASI

Umarova Dilafroz Anvarovna

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'limga
kafedrasi o'qituvchisi*

Ahmedova Mehrangiz Asad qizi

Xujayorova Feruzabonu Xolmamat qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'limga
yo'nalishi
4-bosqich talabalari*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktab va oila o'rtaşıdagi integratsiya masalasi, uning ta'limga tarbiya jarayoniga ta'siri, zamonaviy yondashuvlar asosida oila va maktab hamkorligini mustahkamlash yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, ota-onalar bilan samarali ishlash metodlari, muammolar va yechimlar ko'rib chiqiladi.*

Annotation. *This article analyzes the issue of integration between school and family, its impact on the educational process, and ways to strengthen school-family cooperation through modern approaches. The study also explores effective methods of working with parents, existing challenges, and potential solutions.*

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос интеграции между школой и семьей, ее влияние на образовательный процесс, а также пути укрепления сотрудничества на основе современных подходов. Также анализируются эффективные методы работы с родителями, существующие проблемы и рути их решения.

Kalit so'zlar. *Maktab, oila, integratsiya, hamkorlik, tarbiya, ta'limga sifati, ota-onal, pedagogika.*

Keywords. *School, family, integration, cooperation, upbringing, education quality, parents, pedagogy.*

Ключевые слова. *Школа, семья, интеграция, сотрудничество, воспитание, качество образования, родители, педагогика*

Ta'limga tizimi – har bir davlatning kelajagini belgilovchi eng muhim sohalardan biri bo'lib, unda bola shaxsining shakllanishi, bilim olishi, jamiyatga foydali inson bo'lib kamol topish jarayonlari kechadi. Bu jarayonlarda nafaqat maktab, balki oila ham asosiy ishtirokchilardan biri hisoblanadi. Shu sababli, maktab va oila o'rtaşıdagi uzviy aloqani ta'minlash – bugungi kunda ta'limga sifatini oshirishdagi eng dolzarb masalalardan biridir.

Maktab va oila o'rtasidagi integratsiya deganda, farzandning tarbiyasi va ta'lif olishi yo'lida ikki muhim muassasaning yaqin hamkorlikda ishlashi tushuniladi. Bu jarayonni to'g'ri yo'lga qo'yish orqali o'quvchilarda ijtimoiy faollik, mustaqil fikrlash, intizomlilik va ijobiy xarakter fazilatlarini shakllantirish mumkin. Integratsiyaning yuqori darajada tashkil etilishi maktabdagi pedagogik jarayonlarning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ota-onasi bilan doimiy pedagogik hamkorlik qiluvchi maktab o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari 20–25% ga yuqori bo'ladi. Bundan tashqari, bu kabi o'quvchilar o'rtasida maktabga bo'lgan munosabat, ijtimoiy moslashuv va ruhiy barqarorlik darajasi ham yuqori bo'lishi aniqlangan. Zamonaviy ta'linda "oila – maktab – jamiyat" uchligi asosida hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali o'quvchining shaxsiy, intellektual va axloqiy rivojiga keng imkoniyatlar yaratish mumkin. Shu nuqtai nazaridan, ushbu maqolada maktab va oila o'rtasidagi integratsiyaning mazmun-mohiyati, uni amalga oshirish shakllari, mavjud muammolar hamda samarali yechimlar tahlil qilinadi. Maktab va oila integratsiyasi – bu bola shaxsining har tomonlama rivojlanishi, ma'naviy-axloqiy kamoloti va ilmiy salohiyatining yuksalishi yo'lida maktab jamoasi va ota-onalar o'rtasidagi uzviy, samarali hamkorlik tizimidir. Integratsiya – lotincha "integratio" so'zidan olingan bo'lib, "birlashtirish", "uyg'unlashtirish" degan ma'noni anglatadi. Pedagogik jarayonda esa bu tushuncha maktab va oilaning ta'lif-tarbiya jarayonida yagona maqsad sari harakat qilishi, resurslarini va sa'y-harakatlarini uyg'unlashtirishi sifatida izohlanadi.

Oila – birlamchi tarbiya muhitidir. Farzand ilk ijtimoiy tajribani aynan oilada oladi. Shuning uchun maktab o'z faoliyatini rejalshtirar ekan, o'quvchining oilaviy muhitini, tarbiyaviy sharoitini, ota-onalarning savodxonlik va mas'uliyat darajasini e'tiborga olishi lozim. Bunda o'zaro ishonch, hurmat, mas'uliyatli yondashuv asosiy mezon sifatida xizmat qiladi. Integratsiyaning to'g'ri yo'lga qo'yilishi esa bolada ijobiy motivatsiya, maqsadga intilish, jamiyatda o'z o'rmini topishdek muhim fazilatlarni shakllantiradi. Integratsiyaning asosiy mohiyati – ota-onalar va maktab bolaning taqdiriga befarq bo'lmagan holda, uni har tomonlama tarbiyalash va rivojlantirishda hamkorlikda faol ishtirok etishidir. Bunda maktab va oilaning roli quyidagicha namoyon bo'ladi:

Maktab - o'quvchilarning ilmiy, nazariy bilimlarini shakllantiradi, ularni jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ijtimoiylashtirish jarayonida yetakchi rol o'yaydi.

Oila - bolaning kundalik tarbiyasiga bevosita ta'sir qiladi, axloqiy-ruhiy tayanchni yaratadi, shaxsiy qadriyatlar asoslarini beradi.

Shunday ekan, bu ikki muassasaning maqsadi bir – sog'lom, bilimli, tarbiyali, ijtimoiy faol avlodni voyaga yetkazishdir. Shu bois, ular o'zaro axborot almashinuv, faoliyatni muvofiqlashtirish, bir-birini to'ldirish kabi tamoyillar asosida ishlashi lozim. Bugungi kunda ta'lif tizimidagi yondashuvlar maktab-oila integratsiyasini yangi bosqichga

olib chiqmoqda. Jumladan, kommunikatsion texnologiyalar, ota-onalar bilan onlayn va oflayn formatdagi pedagogik muloqotlar, psixologik xizmatlar va ijtimoiy loyihalar orqali integratsiya kengayib bormoqda. Integratsiya nafaqat bola, balki o'zaro aloqador ikki muhit – maktab va oilaning o'zini ham rivojlantiradi, pedagoglar va ota-onalarning tajriba almashuvini kuchaytiradi. Natijada o'quvchi uchun yagona, barqaror, qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratiladi. Integratsiyaning shakllari va uslublari. Maktab va oila o'rtaсидаги integratsiya turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Har bir oila va maktabning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va resurslari mavjud bo'lib, shu sababli integratsiya shakllari ham har xil bo'ladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar integratsiya jarayonini samarali tashkil qilish uchun turli shakllar va uslublardan foydalanishni talab etadi. Quyida ular haqida batafsil ma'lumot beriladi: Ota-onalar yig'inlari va uchrashuvlari. Ota-onalar yig'inlari, ochiq eshik kunlari – maktab va oila integratsiyasining an'anaviy shakllaridan biridir. Bu tadbirlar ota-onalar va o'qituvchilar o'rtaсида bevosita muloqot uchun imkoniyat yaratadi. Yig'inlar orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, maktabdagi faoliyati, jismoniy va ruhiy holati haqida ma'lumotlar beriladi. Shu bilan birga, ota-onalar o'z fikr-mulohazalarini bildirishi va ta'lim jarayonini yaxshilash bo'yicha takliflar kiritishi mumkin. Ochiq eshik kunlari esa ota-onalarga o'quvchilarni sinfda kuzatish, ularning maktabdagi ishiga bevosita baho berish imkonini yaratadi. Bu o'z navbatida o'qituvchilarni yanada mas'uliyatli bo'lishga, o'quvchilarning ehtiyojlarini to'g'ri aniqlashga undaydi. Bola va uning oilasi o'rtaсида aloqani o'rnatishda individual yondashuvning ahamiyati katta. Har bir oila, farzandning tarbiyasi va ta'limi bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shu boisdan, ota-onalar bilan individual suhbatlar o'tkazish, ularning farzandining maktabdagi muammolarini tahlil qilish, pedagogik maslahatlar berish samarali bo'ladi. Bunday yondashuvlar o'quvchining shaxsiy ehtiyojlariga javob beradi, oiladagi muhitni yaxshilashga xizmat qiladi.

Maktabda ota-onalar uchun seminarlar va treninglar tashkil etish, pedagogik bilimlarni ularga yetkazishning samarali shakllaridan biridir. Bu treninglarda ota-onalar ta'lim va tarbiya jarayonida maktab bilan qanday hamkorlik qilish kerakligi haqida ma'lumot olishadi. Seminarlar va treninglar bolalarning psixologik holati, ta'lim metodikasi, yangi pedagogik texnologiyalar haqida bilimlar berishga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, bolalarning o'qishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan turli pedagogik metodlar va usullarni o'rganish, ota-onalarga ularni amaliyotda qo'llashni o'rgatish, ular bilan konstruktiv muloqot olib borish zarur. Raqamli platformalar va onlayn aloqalar. Zamonaviy texnologiyalarni maktab-oila integratsiyasida qo'llash kundan-kunga ahamiyat kasb etmoqda. Mobil ilovalar, Telegram guruhlari, onlayn kunliklar orqali maktab va oila o'rtaсида doimiy aloqani o'rnatish mumkin. Bu usul ota-onalarga o'quvchilarning

darsdagi natijalari, xatti-harakatlari, muntazam baholanishi haqida real vaqt rejimida ma'lumot olish imkonini beradi. Shu tarzda, ota-onalar o'z farzandlarining ta'lim jarayonida ishtirok etishlari, ularning muvaffaqiyatlari va muammolarini aniq ko'rib chiqishlari mumkin. Onlayn aloqalar, shuningdek, maktabdagagi tadbirlar haqida ota-onalarni tezda xabardor qilish, turli o'quvchilarni birlashtiruvchi loyihalarda ularni jalb qilish imkonini yaratadi. Bu maktab va oila o'rtasidagi interaktiv muloqotni yanada kuchaytiradi. Maktabda o'quvchilarning ota-onalari bilan birgalikda tadbirlar, masalan, san'at ko'rgazmalari, sport musobaqalari, madaniy tadbirlar o'tkazish orqali ham integratsiyani rivojlantirish mumkin. Bunday tadbirlar o'quvchilarning ijodiy va jismoniy rivojlanishiga yordam beradi, ota-onalar va maktab o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi. Oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik faqat ta'limdan chetga chiqmasdan, bolalar tarbiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar bilan ishlashda sotsiologik va psixologik maslahatlar berish ham muhim ahamiyatga ega. Bu, ayniqsa, oilaviy muammolar va tarbiyaning salbiy jihatlari bo'lgan o'quvchilarga ta'sir etadi. Maktabdagagi psixologlar va sotsiologlar ota-onalar bilan ishslash, ularning farzandlarining tarbiyasi, ruhiy holati haqida maslahatlar berishi zarur. Psixologik maslahatlar, ota-onalarni pedagogik bilimlar bilan qurollantirish va ularni bola tarbiyasidagi eng yaxshi usullarni qo'llashga o'rgatish, ijtimoiy moslashish va rivojlanish jarayonlarini yaxshilashga yordam beradi. Yuqorida shakllar va uslublar maktab va oila o'rtasidagi integratsiyani samarali tashkil qilishda asosiy vositalardan biridir. Har bir shakl o'ziga xos maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, ularning to'g'ri qo'llanishi ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, maktab va oila integratsiyasi zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas, dolzarb va strategik yo'nalishlaridan biridir. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining har tomonlama kamol topishida nafaqat maktab, balki oilaning ham faol ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega. Integratsiyalashgan yondashuv orqali o'quvchi uchun yagona pedagogik makon yaratiladi, bunda maktab va oila bir-birini to'ldiradi, tarbiyaviy ta'sirni kuchaytiradi. Ota-onalar bilan hamkorlikda ishslash, ularni pedagogik jarayonga jalb qilish, ular bilan doimiy muloqotni yo'lga qo'yish orqali ko'plab muammolarni bartaraf etish, o'quvchilarda ijobiy motivatsiya, mas'uliyat hissi va o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish mumkin. Integratsiyaning muvaffaqiyatli kechishi uchun maktab tomonidan ilg'or metodlar, zamonaviy texnologiyalar, doimiy rivojlantirilib borilishi, pedagoglar o'z ustilarida ishslashlari zarur. Shuningdek, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holatini inobatga olgan holda individual yondashuvga asoslangan ishlar yo'lga qo'yilishi lozim. Xulosa qilib aytganda, maktab va oila o'rtasidagi integratsiya kuchli ijtimoiy sheriklikka asoslanadi va bu sheriklikda asosiy e'tibor — o'quvchining shaxs sifatida shakllanishi, bilim olishi va jamiyatda o'z o'rnnini topishiga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ibrohimova N. "Maktab va ishtimoiy muhit" - Toshkent: TDPU nashryoti, (2022): 85-89
2. Qodirov A. Oila va maktab: .pedagogik hamkorlik asoslari. - Toshkent : Fan , (2020) 60-65.
3. To'raqulov E. , Jo'rayeva S. Pedagogik texnalogiyalar. - Toshkent: O'qituvchi (2019) 45-48.
4. Tursunov B. Zamonaviy pedagogika asoslari. - Samarqand: SamDU, (2021) 101-106.
5. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI." MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEUmarova,
6. Dilafruz Anvarovna. "IMPROVING THE METHODOLOGY OF SOCIO-EMOTIONAL DEVELOPMENT OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION IN PRIMARY GRADES." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 5.03 (2024): 394-403.SOLUTIONS 1.2 (2024): 23-25.
7. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIY USTANOVKALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI." TADQIQOTLAR 31.4 (2024): 3-6.
8. Umarova, Dilafruz Anvarovna. "BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIK TA'LIM JARAYONIDA O 'QUVCHILARNI IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH." GOLDEN BRAIN 1.30 (2023): 46-49.